



O'RTA ASRLAR EKOLOGIK DUNYOQARASHI SHAKLLANISHINING TARIXIY ILDIZLARI

Erqulov Ziyot Sadinovich

QarDU universiteti

tibbiyot fakulteti o'qituvchisi

erqulovz2@gmail.com

Аннотация: Maqolada ekologik dunyoqarashning umuminsoniy xususiyatlarini shakllantirishda Sharq va G'arb allomalar ijomad namunalarini ilmiy o'rghanish, umumlashtirish va transformatsiya qilish tabiiy atrof-muhit muhofazasiga doir qadriyatlarni universallashtiradi ilmiy jihatdan ochib berilgan va dalillangan.

Kalit so'zlar: ekologiya, shaxs ekologiyasi, globallashuv, ekologik dunyoqarash, shaxs, jamiyat, ekologik talab, ekologiya sohasi.

Аннотация: В статье научно выявлены и обоснованы научное исследование, обобщение и трансформация работ восточных и западных ученых в формировании универсальных черт экологического мировоззрения, универсализации ценностей охраны природной среды.

Ключевые слова: экология, экология личности, глобализация, экологическое мировоззрение, человек, общество, экологический запрос, область экологии.

Abstract: In the article, the scientific study, generalization and transformation of the works of Eastern and Western scholars in the formation of the universal features of the ecological worldview, universalize the values of natural environment protection, are scientifically revealed and proved.

Key words: ecology, personal ecology, globalization, ecological worldview, man, society, environmental demand, field of ecology.

X - asrning so'nggi choragidan boshlab, insoniyat tabiatni zamonaviy antropogen, antropotexnogen bosimlarga dosh bera olmasligini, uning o'z-o'zini tiklash imkoniyatlari ko'rsatilgan bosimlar kuchidan bir necha barobar kamligini anglab oldilar.

Yirik teolog Avreliy Avgustin buni "О Граде Божием" asarida: "... tirik narsa tirik emasdan, tug'ish va istakka qodir narsa bunday xislatga ega bo'limgandan tepada joylashgan. Xuddi odamlar hayvonlardan yuqori bo'lgani kabi hissiyotga ega bo'lganlardan, aqlilari aqliga ega bo'limganlardan yuqorida turadi. Farishtalar



odamlardan yuqori turgani kabi aqlilar orasidagi barhayotlar o‘limga yuz tutuvchilardan tepada turishadi. Bularning barchasi tabiatdagi tartibga mos ravishda biri boshqasining ustiga joylashadi", deb ifodalagan edi. Qisqasi, inson va tabiatning qarama-qarshiligi xudoning irodasi bilan belgilangan.

Bu ta’limotda inson Yerdagi jonzotlar piramidasining tepasiga qo‘yilib, unga boshqalarnikiga o‘xshamaydigan xislat – nomoddiy ilohiy ruh (jon) ato etilganligi, tabiat insonga xizmat qilishga yaratilganligi va shu nuqtai nazardan qiziqish uyg‘otishi va o‘rganilishi mumkinligi ta’kidlanadi. Ya’ni u o‘zining mustaqil mazmuniga ega emas, inson uchun ahamiyatli bo‘lganligi uchungina, tegishli mazmunga ega obyekt sifatida talqin qilinadi.

O‘rta asrlar ekologik dunyoqarashida antik davrdagidek tabiatga mahliyo bo‘lish, uning go‘zalligidan huzurlanish (evdemonizm va gedonizm) inkor etildi va tabiat inson uchun faqat iste’molchilik, pozitiv-pragmatik ahamiyatga ega bo‘lib, ularning barchasi inson uchun "xom ashyo"dir.

"Injil"da yuqoridagi fikrlar quyidagi tarzda bayon qilingan: "Xudo O‘z suratimizga ko‘ra, O‘zimizga o‘xhash odamni yarataylik. U dengizdagi baliqlar, ko‘k yuzidagi parrandalar, chorvalar, ha, butun yer yuzi va yerda harakat qiluvchi barcha maxluqot ustidan hokimlik qilsin" (Ibtido, 1:26)[1]. "...Yerdagi hamma hayvonlar, osmondagи barcha parrandalar, butun yer yuzida harakat qiluvchi maxluqlar va butun dengizdagi baliqlar sizlardan qo‘rqib, dahshatga tushadilar... Yashayotgan har bir jonivor sizlar uchun yemish bo‘ladi..." (Ibtido. 9:3,4)[2] , deyishi bilan xristianlik insonning tabiatdan begonalashuviga diniy shaklda yakun yasadi.

Shaxs ekologik dunyoqarashi shakllanishida insoniyat tarixi davomida yuzaga kelgan, ayniqsa Sharq xalqlari tarixida ekologik mazmundagi afsona, rivoyat, asotir, ertak, masal, qo‘sish, dostonlar va boshqa xalq og‘zaki ijodi namunalari alohida o‘rin tutgan. Shuningdek tarixiy manbalar, diniy-ma’rifiy hamda ajdodlar tafakkurining hayotbaxsh ne’matlari bo‘lgan ilmiy va badiiy asarlar ekologik dunyoqarash shakllanishida mustahkam nazariy hamda amaliy asos bo‘lgan va ular hamon ushbu vazifani bajarib kelmoqda[3].

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, tabiatga oqilona munosabat Sharq xalqlari ekologik dunyoqarashi rivojlanish tarixidagi o‘ziga xos umumiy xususiyat, unda teologik mazmun ustuvorligi bilan xarakterlanadi. Mazkur xalqlarning tabiiy hodisalarga bo‘lgan diniy-teologik qarashlarini, tasavvurlarini o‘zida ifodalagan “Avesto”, “Qur’oni Karim”, “Hadislар” kabi dinning muqaddas kitoblarida keltirilgan ma’lumotlar bundan yaqqol dalolat beradi.



Masalan, "Avesto"ning (35-42 xot) o'n uchinchi bo'lim 16-bandida quyidagi fikrlar qayd etilgan: "Suvlar, zaminlar va giyohlarni olqishlaymiz. Manzillar, qishloqlar, yaylovlar, xonumonlar, suvloqlarni olqishlaymiz"[4]. Shuningdek, bu muqaddas kitobda inson nafaqat o'zi yashayotgan tabiiy muhitga, balki undagi turlituman jonzotlarga ham mehr-muhabbatl bo'lishga da'vat etilgan.

Xycusah, "Авесто"да "Inson - deb ta'lim beradi Zardusht - hayvon bolasini o'z farzandlaridek tarbiyalasagina, yaylovlarni gullab-yashnashiga yordam bergen taqdirdagina, dehqonchilik va sug'orish ishlarida ishtiyoq bilan mehnat qilsagina, mehnat ma'budasi Ardvosura Anaxitaning inoyatiga noil bo'lg'usidir"[5]. Bu manbada o'z davri nuqtai nazaridan, umuman Sharq, ayniqsa Markaziy Osiyo mamlakatlarida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, hayvonot hamda o'simliklar dunyosini muhofaza qilish haqida mukammal ma'lumotlar berilgan[6].

Boshqacha qilib aytganda, bu keltirilgan misollardan ko'rinish turibdiki, o'tmish ajdodlarimiz dunyoqarashi, ijtimoiy tafakkurida ekologik ong va madaniyatning muhim jihatlari o'sha davrdayoq shakllangan. Garchi sodda, diniy xarakterda bo'lsa-da, atrof-muhit musaffoligi, tabiat ne'matlariga oqilona munosabatlarning davruhiga xos xususiyatlari uzoq davrlardayoq tarkib topa boshlagan.

Mintaqamiz xalqlari orasida islom dinining keng yoyilishi, uning asosiy manbai bo'lgan Qur'oni Karim va Hadisi Sharifdag'i aqidalar asosida insonning tabiatga munosabatidagi otashparastlik mazmunidagi xislatlardan islomiy xarakterdagi iymon-e'tiqod, diyonat va ilohiyot bilan bog'liq tamoyillar yuzaga kelgan.

Islom ta'limotida ekologik dunyoqarashning ontologik muammolariga, ya'ni tabiatning paydo bo'lish masalasiga alohida e'tibor berilgan. Masalan, Qur'onidagi "Furqon" surasining 2- oyatida "Alloh hamma narsani yaratdi va o'Ichovini mukammal qildi"4, - deyilgan. Ya'ni dunyodagi har bir narsa – suv, tuproq, havo, hayvonot olami hamda nabotot olami ham Allah taolo tomonidan muayyan o'Ichov bilan bir-biriga o'zaro bog'liq qilib yaratilgan. Agarda bu muvozanat inson tomonidan buziladigan bo'lsa tabiat, shu jumladan, inson uchun jiddiy muammolar kelib chiqishi ehtimoli nihoyatda kattaligi va jazo muqarrarligi ta'kidlangan.

Allah taoloning ilohiy kitoblarida inson ulug'lanib, unga tabiat unsurlarini asrab avaylash, ne'matlaridan foydalanishda nobud qilmaslik, ezgu maqsadlarda ishlatish amr etilgan. "A'rof" surasining 56-oyatida "Obod qilib qo'yilgan Yer yuzida buzg'unchilik qilmang"[7], deb buyurilgan. Bu ta'kidlar insonni tabiat va uning ne'matlariga nisbatan oqilona munosabatda bo'lishga chaqiradi. Tabiat musaffoligini saqlashga daxldor masalalarga alohida urg'u berilganligi esa shaxs ekologik ongi, tafakkuri hamda dunyoqarashining shakllanishida muhim o'rin tutadi.



Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriyning “Al Jome’ as-sahih” hadislar to‘plamida esa tabiat ne’matlari inson uchun yaratilganligi va ulardan oqilona foydalanish: ko‘chat ekish, yer haydash va ijara ga berish, o‘lik yerkarni o‘zlashtirish, suv, ov va ovga tahsin aytish haqida yozilgan. Jumladan, uning “Al-Adab al-mufrad” – (“Adab durdonalari”) asaridagi 482-hadisda: Payg‘ambar (s.a.v) ning: “Ey Alloh, yerning boyligidan rizqimizni ber! Bizning mada va sa’larimizga barokat ber![8] - deb so‘raganlarini eshitdik”, deyilgan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, islom dini ilohiy manbalaridagi ma’rifatga chaqiriqlar, uning o‘gitlari mintaqamizda yashovchi har bir e’tiqodli, imonli kishilar qalbiga yaqindir. Ular kishilarda tabiatni e’zozlashga mas’uliyat tuyg‘usini kuchaytirish orqali ekologik dunyoqarashini takomillashtirishga, har bir shaxs ruhiyatiga uzlucksiz singdirib borishga ma’naviy rag‘bat beradi.

Bu g‘oyalar, keyinchalik panteizm falsafasining asosiy mazmunini tashkil qilgan. YA’ni tabiat unsurlari va hodisalarini haqidagi tushunchalar, inson bilan tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va tabiatga shafqatsizlik qilmaslik masalalari, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarining asarlarida o‘z ifodasini topgan.

Ayniqsa, Forobiy qarashlarida insonning har bir narsaga meyor bilan yondashuvi, tabiatga mehri, shafqati – inson fazilati hamda baxtga erishishning mukammal yo‘li sifatida talqin qilinadi. Uning fikricha, “Baxtga erishishning birdan-bir yo‘li ezgu ishlarni yaxshi niyatlar bilan bajarish va fazilatli amallarga tayanib, razolat va baxtsizlikni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan ishlardan o‘zini tiya bilişdadir”. Zero, Forobiy uqtirgan ezgu ishlar zamirida insonning o‘zini o‘rab turgan atrof-muhitga, tabiatga o‘zgacha mehr va ixlos bilan munosabatda bo‘lish turganligi ta’kidlangan.

Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Rayhon Beruniy asarlarida shaxs ekologik dunyoqarashini boyitishga xizmat qiluvchi muhim ilmiy ma’lumotlar chuqur asoslab berilgan. Xususan, Beruniyning “Geodeziya”, “Ma’sud qonunlari” deb nomlangan fundamental asarlarida inson va tabiat munosabatlari, inson tafakkuri rivoji mahsuli bo‘lgan fanlar taraqqiyotining tabiat bilan uzviy bog‘liqligi kabi masalalar yoritilgan.

Beruniy Forobiy, Ibn Sino va boshqa Sharq mutafakkirlaridan farqli o‘laroq, insonning umuman tabiat oldidagi va jamiyatdagi axloqiy mas’uliyati, borliqqa munosabati masalasiga doir maxsus asarlar yozib, muammolar yechimini muayyan tizimga keltirmagan bo‘lsa ham ularni aql, ilm, bilish nuqtai nazaridan hal etishga harakat qilishi bilan ilmiy ekologik dunyoqarash shakllanishining gnoseologik asoslarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shtan.



Beruniy “Geodeziya” asarining kirish qismida: “Aql mavjud ekan va ruhiyatimda izlanishga ehtiyoj bor ekan, men aql yordamida barcha narsalarni joy-joyiga qo‘yishim, ko‘p sohalarda yangi kashfiyotlar yaratishim va noaniq, mavhum narsalarga aniqlik kiritishimga to‘g‘ri keladi”, deb yozgan edi. Uning nazarida olam ashylari, hodisalarini astoydil bilishga jazm qilmagan, nodonlik va johillikni o‘zining xotirjamligi meyori va mezoni deb bilgan odam hamma jarayonlarga, xususan, tabiatga munosabatda ham mas’uliyatlari bo‘la olmaydi.

Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” va boshqa asarlarida tabiiy muhitning inson va boshqa jonzotlar hayotiga ta’siri masalalari chuqur tahlil etilishi ekologik dunyoqarash shakllanishida katta rol o‘ynagan. Xususan, uning “Tib qonunlari”ni o‘rganar ekanmiz, allomaning jahonda birinchilardan bo‘lib, ilm-fan sohasida tabiiy muhit va inson hayotining o‘zaro munosabatlari ekologik dunyoqarashi asoslari ekanligini genial tarzda teran anglaganligini ko‘ramiz.

E’tiborli tomoni shundaki, Ibn Sino ekologik omilning muhim tarkibiy qismi sifatida turar-joy muhiti, uning inson salomatligiga ta’sirini ilmiy asoslab bergen. Ibn Sino tabiiy muhit o‘zgarishi jarayonlarining inson ruhiyati, fikrlash tarzi, dunyoqarashiga ta’sirini emprik dalillar asosida tahlil etgan. Alloma fikricha, to‘g‘ri mulohaza yuritish va qarorlar qabul qilishi asosida ham shaxsning tabiiy hodisa hamda jarayonlarga munosabati turadi. Bu fikrlarning ilmiy asosi uning “Quroza-yatabiat” (“Tabiat durdonasi”) asarida bayon etilgan.

Shuni alohida e’tirof etish zarurki, mutafakkirning deyarli barcha asarlarida, xususan, “Tib qonunlari” va “Tabiat durdonasi”da inson faoliyati bilan tabiiy jarayonlar bir-biriga qarshi qo‘yilmasdan, ularning uyg‘unligi tibbiyot nuqtai nazaridan asoslangan. Chunki u paytda tibbiyot mustaqil fan sohasi bo‘lmasdan, balki falsafaning muhim tarkibiy qismi sanalganligi uchun, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish tarixiy haqiqatga putur yetkazadi degan fikr ustuvor bo‘lgan[11]. Qolaversa, o‘sha davr mutafakkirlar ijodida ilohiyot va tabiat mavjudligini panteizm nuqtai nazaridan talqin etishda an’anaviylik ham turli bosqichlarda namoyon bo‘lgan edi.

Madaniy dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ko‘mak bergen bo‘lsa-da, biosfera ekologik muvozanati buzilishiga sabab bo‘lgan. Bu holat “iste’molchi odam” nuqtai nazaridan obyektiv qonuniyatning taqozosidir. YA’ni insoniyatning moddiy ehtiyojlari doimiy o‘sib borayotgan sharoitda chorvachilik va dehqonchilikni rivojlantirish uchun tabiat resurslaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish hayot taqozasi, degan stereotip shakllandi. Asta-sekin patriarxal oila o‘rniga ijtimoiy jamoalar, qulchilikka



asoslanuvchi jamiyat, davlatchilik tizimi yuzaga kelishi, mazkur tarixiy davr ekologik dunyoqarashida ham o‘z aksini topdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ҳозирги даврда маънавий инқиroz глобаллашиб кетаётган шароитда тархий меросга муносабат тубдан ўзгараётганлиги, хусусан дунёда Шарк халқлари маънавий қадриятлари трансформациясига эҳтиёж кучаяёганлигини эътиборга олиб, бу масалани нисбатан кенгроқ ёритишни лозим топдик.
2. Қаранг: Ҳасанов С. Хоразм маърифати олам кўзгуси. -Тошкент.: Ўқитувчи, 1996, 45-б.
3. Собиров У. Экологик маданият шаклланиши тарихидан. // "Экология хабарномаси". №3, 2005, 17-б.
4. Куръони Карим. Маъноларининг таржимаси. -Тошкент.: 2001, 359-б.
5. Куръони Карим. Маъноларининг таржимаси. -Тошкент.: 2001, 157-б.
6. Имом Исмоил Ал-Бухорий. Ал-Адаб ал-муфрад (Адаб дурдоналари). - Тошкент.: Ўзбекистон, 1990, 140-б.
7. Мада - ўлчов микдори бўлиб бир соянинг тўртдан бирига ёки икки ратл (бир ратл 449, 28 грга teng, соъ-эса беш ва уч чорак ратл ёки саккиз ратл)га тенгдир.
8. Инжил. 1996, 616-617-бетлар.
9. Қаранг: Абу Райхон Беруний. Избранные произведения. Т.II. Определения границ мест для уточнения расстояний между населенными пунктами. (Геодезия). – Ташкент.: Фан, 1966. 83- с.
10. Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари. З-жилдли. 1-жилд. -Тошкент.: Халқ мероси нашриёти, 1992. 45- 6.
11. YOSHLARDA MA’NAVIY-MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLAHDA INTERNETNING ROLI Nomozov Xurshid Shavkat o’g’li https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9KN3N04AAAAJ&citation_for_view=9KN3N04AAAAJ:d1gkVwhDpl0C
12. THREATS TO INFORMATION SECURITY IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS Nomozov Xurshid Shavkat o’g’li https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9KN3N04AAAAJ&citation_for_view=9KN3N04AAAAJ:d1gkVwhDpl0C
13. AXBOROT XURUJINING O ‘SMIRLAR HAYOTIGA TA’SIRI Nomozov Xurshid Shavkat o’g’li https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9KN3N04AAAAJ&citation_for_view=9KN3N04AAAAJ:qjMakFHDy7sC
14. YUKSAK AXBOROT MADANIYATI-INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN RATSIONAL FOYDALANISH SHARTI Nomozov Xurshid Shavkat o’g’li



https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9KN3N04AAAAJ&citation_for_view=9KN3N04AAAAJ:9yKSN-GCB0IC

15. ИНТЕРНЕТ-МАКОН ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШДА АХЛОҚИЙ МАДАНИЯТНИНГ АҲАМИЯТИ

Nomozov Xurshid Shavkat o'g'li

https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9KN3N04AAAAJ&citation_for_view=9KN3N04AAAAJ:UeHWp8X0CEIC

16. INTERNET-MAKON MOHIYATI, GENEZISI VA ZAMONAVIY TARKIBI

Nomozov Xurshid Shavkat o'g'li

https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9KN3N04AAAAJ&citation_for_view=9KN3N04AAAAJ:u-x6o8ySG0sC

17. ИНТЕРНЕТ-МАКОН ТАЪСИРИДА СОДИР БЎЛАЁТГАН НЕГАТИВ ИЖТИМОЙЛАШУВ ШАКЛЛАРИ

Х Номозов

https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9KN3N04AAAAJ&citation_for_view=9KN3N04AAAAJ:W7OEmFMy1HYC

18. INTERNET-MAKON RESURSLARIDAN FOYDALANISH SOHALARI Xurshid Nomozov

https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9KN3N04AAAAJ&citation_for_view=9KN3N04AAAAJ:2osOgNQ5qMEC

19. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System

Omonov Bahodir Nurillaevich, Ochilova Guzal Aralovna, Nomozov Khurshid Shavkatovich, Manzarov Yusuf Khurramovich, Ochilov Baxrom Aralovich

https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=9KN3N04AAAAJ&citation_for_view=9KN3N04AAAAJ:eQOLeE2rZwMC